XALQ DEPUTATLARI MIRZAOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 19-may VII-10-67-9-125-K/25 Mirzaobod tumani

Mirzaobod tumanidagi ayrim ko‘chalarning takrorlangan nomlarini o‘zgartirish va yangi nom berish to‘g‘risida

Mirzaobod tumani mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi mavjud qonunga zid ko‘cha nomlarini qayta nomlash to‘g‘risida tushgan takliflar ko‘rib chiqildi va mazkur takliflar atroflicha muhokama qilinib, ko‘chalarni qayta nomlash bo‘yicha berilgan yangi nomlarni tasdiqlash to‘g‘risida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasi tomonidan taqdim etilgan xulosa hamda O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 295-sonli qarori hamda tuman komissiyasi takliflarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 24-moddasiga muvofiq Xalq deputatlari Mirzaobod tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. Mirzaobod tumani hududidagi qonunga zid ko‘cha nomlarini o‘zgartirish bo‘yicha Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasi (keyingi o‘rinlarda Ekspert komissiya deb ataladi) xulosasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ekspert komissiyasining Mirzaobod tumani hududidagi mavjud qonunga zid nomlarni qayta nomlash hamda nomsiz ko‘chalarga nom berish bo‘yicha takliflari ma’qullansin.

3. Mirzaobod tumanida yangi nom berilgan ko‘chalar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman statistika bo‘limi (E.Nishonov), Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasining Mirzaobod tumani filiali (Sh.Abdullayev), tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (A.Nosirov) hamda tegishli mutasaddi va davlat organlariga amaldagi tartibda nomlari o‘zgartirilgan ko‘chalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazasini shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (A.Xolmatov) nomlari o‘zgartirilgan hududlarda aholining fuqarolik pasportlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

6. Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish bo‘yicha tuman komissiyasiga nomi o‘zgartirilgan ko‘chalarga ularning nomlari yozilgan metall ko‘rsatgich va belgilar, peshlavhalar bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

7. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (M.Mavlonov), mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari hamda xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga hududlardagi yangi nom berilgan ko‘chalarga chiqqan holda aholi o‘rtasida tushuntirish ishlari olib borish tavsiya etilsin.

8. Tuman hokimligi axborot xizmati (B.Abdullayev)ga ushbu qaror mazmun-mohiyatini ijtimoiy tarmoqda yoritish tavsiya etilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi, ekologiya va qurilish, kommunal soha masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Norkuziyev)ga va qaror ijrosini ta’minlash geografik obyektlarga nom berish hamda ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi (S.Kenjayev) zimmasiga yuklatilsin.

10. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi

ABDURAZAKOVA
FERUZA
KARAMATULLAYEVNA

Xalq deputatlari Mirzaobod tumani Kengashining
2025-yil 19-maydagi
VII-10-67-9-125-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Mirzaobod tumanidagi ayrim koʻchalarning takrorlangan nomlarini oʻzgartirish va yangi nom berilgan koʻchalar

RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bogʻlanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan taklif etilayotgan nom	Hududiy komissiya tomonidan berilgan xaritaga ekspert komissiyasining xulosasi	Ekspert komissiyasining umumiy xulosasi
1.	Koʻcha	Mirzachoʻl mahallasi	Koʻklamoyim	Xazina	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Koʻcha	Doʻngariq mahallasi	Chaman	Baraka	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Koʻcha	Nurafshon mahallasi	Chamangul	Joziba	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Berk koʻcha	Nurafshon mahallasi	Chamangul	Joziba	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

					koʻrsatilgan	
5.	Tor koʻcha	Nurafshon mahallasi	Chamangul	Joziba	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6.	Koʻcha	Oydin mahallasi	Chinorli	Anhor	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7.	Koʻcha	Nurafshon mahallasi	Koʻkka parvoz	Sanoat	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
8.	Koʻcha	Dehqonobod mahallasi	Osoyishta zamin	Davlatobod	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
9.	Koʻcha	Yangi hayot mahallasi	Ezgulik yoʻli	Chorsu	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
10.	Koʻcha	Oydin mahallasi	Elgamadad	Donolik	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.